

**Казаков Музаффар.**

*Высшая школа бизнеса и предпринимательства, Узбекистан*

**РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ПО СОСЕДСТВУ,  
ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ И СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ**

**Резюме.** В данной статье приоритеты государственной политики по развитию предпринимательства по соседству, обеспечению занятости и сокращению бедности, проводимые реформы в стратегическом направлении экономической политики нашей страны, обязанности помощников губернаторов придавалось особое значение.

**Ключевые слова:** : помощник мэра, экономическое развитие районных образовательных центров, "железная книга", "женская книга", "молодежная книга", семейный бизнес, льготный кредит, субсидия

**Kazakov Muzaffar.**

*Higher School of Business and Entrepreneurship, Uzbekistan*

**DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP, PROVISION OF  
EMPLOYMENT AND REDUCTION OF POVERTY**

**Summary.** In this article, the priorities of the state policy on the development of entrepreneurship in the neighborhood, ensuring employment of the population and reducing poverty, the reforms being carried out in the strategic direction of the economic policy of our country, and the duties of the governor's assistants are given special importance.

**Keywords:** Assistant mayor, economic development of the neighborhood educational centers, "iron book", "women's book", "youth book", family business, preferential loan, subsidy

**Актуальность.** Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta‘minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida: **2022 yil 1 yanvardan boshlab** har bir shaharcha, qishloq, shuningdek, mahallada **tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi** ( hokim yordamchisi) lavozimi ta‘sis etildi.

Ma‘lumki, har qanday mamlakatda aholining kam ta‘minlangan qatlami mavjud. O‘zbekistonda ham odamlarning muayyan qismi yetarli daromad manbaiga ega emas. Xalqimiz farovonligini oshirish maqsadida “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi. O‘tgan ikki yil davomida birgina oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida byudjetdan qariyb 10 trillion so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Albatta, bu aholi bandligini ta‘minlash, oilalar uchun daromad manbai yaratishga xizmat qildi.

“Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga egadirlar”

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taminlash va kambag‘allikni qisqartirish bugungi kunda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muxim bo‘lgan bandlik va axoli daromadlarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur soha yangi bosqichga ko‘tarilib ta‘lim olish bilan birgalikda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyati berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi -29-sonli Prezident Farmonining asosiy maqsadi mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini

ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari (keyingi o'rinlarda — hokim yordamchilari) faoliyatini samarali tashkil etish axolini kambag'allikdan qutqarishga xizmat qiladi. Shuningdek mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni xonadonbay o'rganish, jumladan, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishning ichki imkoniyatlari, tadbirkorlik bo'yicha ixtisoslashuv va mehnat resurslarini inobatga olgan holda, uni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, ularni ishga solish orqali **mahallaning iqtisodiy rivojlanishini** ta'minlash,

doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni **kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish** hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish;

mahalladagi mavjud bo'sh ish o'rinlarini hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda, **“temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”**ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'sh (vakant) **ish o'rinlariga joylashtirish** hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun **oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda** ko'maklashish;

mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish istagini bildirgan **yetakchi tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish**ni tashkil etish, ularga tadbirkorlik bilan mustaqil shug'ullanish

tajribasiga ega bo'lmagan fuqarolarni o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ularga biriktirish;

aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish, **uy sharoitida dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, urug'chilik, ko'chatchilik, gulchilik** kabi faoliyat turlarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish;

mahalladagi ish bilan band bo'lmagan aholining tadbirkorlik va doimiy daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishini yo'lga qo'yish maqsadida ularga issiqxona qurish, tomorqasini sug'orish uchun vertikal sug'orish quduqlarini burg'ilash, qishloq xo'jaligi kooperativiga a'zo bo'lish, asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish, bino va inshootning ijara to'lovi hamda kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qishi uchun **subsidiyalar olishda ko'maklashish**;

mahalladagi **bo'sh bino va yer maydonlarini** aniqlab, ularni belgilangan tartibda tadbirkorlik sub'ektlariga ajratish bo'yicha tegishli tashkilotlarga takliflar kiritish;

**tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to'siq bo'layotgan**

**muammolarning** (muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga ulanish va ulardan foydalanish, turli xil faoliyatni yo'lga qo'yish uchun ruxsatnomalar va litsenziyalar olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ajratish va boshqalar) tegishli tashkilotlar tomonidan hal etilishini tashkil etish kabi masalalarni hal qilishda asosiy vazifalari hisoblanadi.

Endi kambag'allik tushunchasiga ham oydinlik kiritib o'tsak: Kambag'allik ko'rsatkichi aholining turmush darajasini baholash uchun foydalaniladigan mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida kambag'allik darajasini ta'riflashga yondashishda uchta asosiy konsepsiya: mutlaq, nisbiy va subyektiv kambag'allik konsepsiyasidan foydalaniladi. O'zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda

kaloriyalar, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar zaruriy iste‘molining fiziologik me‘yorlaridan foydalaniladi.

Nisbiy kambag‘allik konsepsiyasi asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko‘rsatkichlarining u yoki bu mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta‘minlanganlik darajasi bilan bo‘ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondashishda daromadlari mamlakat bo‘yicha o‘rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag‘al hisoblanadi.

**XULOSA** “INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH” Yo‘nalishida 12 maqsad ko‘zda tutilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirilishi uchun belgilanga chora tadbirlarning sithi dildan bajarilishi, davlat rahbarlari, siyosat arboblari, barcha davlat hizmatchilari - eganlab o‘tirgan lavozim amallarini qonunan bajarishi—**tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirishning** garovidir. Bugungi atrofimizdagi taxlikali zamonda O‘zbekiston “Harakatlar strategiyasidan- taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida sog‘lom g‘oya bilan shiddat bilan rivojlanishiga yetarlicha asoslar mavjud.

### **Список литературы**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi;
3. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
4. B.Xodiyev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik–T.: “Barkamol fayz media”, 2017.